

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2025- YIL
YANVAR**

2025- yilning yanvar oyida Buxoro viloyatida jami **550,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2024- yilning mos davriga nisbatan **119,6 %** ni tashkil etdi. Joriy davrda qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qoʻshgan holda hisob-kitob qilingan.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor




2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 004

Bino va inshootlar
qurish

498

Fuqarolik obyektlarini
qurish

539

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 78,7 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 49,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2024- yilning mos davriga nisbatan 70,8 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 24,4 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2024- yilning mos davriga nisbatan 102,9 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,4 foiz ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 78,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.02.2024- y.	01.02.2025- y.	
Buxoro viloyati	2 592	2 041	78,7
Buxoro shahri	826	681	82,4
Kogon shahri	105	84	80,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	71	67	94,4
Buxoro	179	158	88,3
Vobkent	116	85	73,3
G'ijduvon	145	119	82,1
Kogon	146	109	74,7
Qorako'l	109	80	73,4
Qorovulbozor	54	42	77,8
Peshko'	167	123	73,7
Romitan	250	184	73,6
Jondor	210	145	69,0
Shofirkon	214	164	76,6



2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (33,4)



Romitan t. (9,0)



Shofirkon t. (8,0)



- Buxoro sh.
- Kogon sh.
- Olot t.
- Buxoro t.
- Vobkent t.
- G'ijduvon t.
- Kogon t.
- Qorako'l t.
- Qororvulbozor t.
- Peshko' t.
- Romitan t.
- Jondor t.
- Shofirkon t.

2025- yil yanvar oyi uchun qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so‘m


	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati *	550,2	107,9	300,1	142,2
shahar:				
Buxoro sh.	107,0	17,6	76,7	12,7
Kogon sh.	7,6	0,2	5,2	2,2
tuman:				
Olot	18,3	1,2	13,0	4,1
Buxoro	21,5	0,3	15,7	5,5
Vobkent	13,5	-	10,3	3,2
G‘ijduvon	22,3	1,4	13,2	7,7
Kogon	10,0	1,5	4,7	3,8
Qorako‘l	37,3	14,6	19,5	3,2
Qorovulbozor	36,1	30,4	4,2	1,5
Peshko‘	14,0	-	9,0	5,0
Romitan	61,1	28,8	26,5	5,8
Jondor	58,3	-	53,3	5,0
Shofirkon	12,8	-	8,8	4,0

* Joriy davr bo‘yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo‘shgan holda xisob-kitob qilingan.




2025- yilning yanvar oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 107,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2024- yilning mos davriga nisbatan 2,0 m. ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 19,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlarining korxonalar turlari kesimida ulushi, foizda



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor



MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,4 % i yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 2,2 m.), Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 26,9 % i yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 5,1 m.), ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2025- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,5 % i to'g'ri keldi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni tashkil etgan holda 300,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



54,5

2025-yil yanvar

59,8

2024- yil yanvar



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jondor tumanida (53,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 91,4 %), Vobkent tumanida (10,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 75,8 %), Buxoro tumanida (15,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 73,0 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,9 %** ni tashkil etdi yoki **142,2 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan **108,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **2,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **547,5 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,5 %** va **99,5 %** ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar

2025- yil yanvar



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2025- yil yanvar oyida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **68,2 %** i yoki **375,1** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

19,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **74,1** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **19,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **199,5** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,2 %** ni tashkil etdi.

53,2 %

27,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **101,5** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **27,0 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari 2025- yil yanvar oyida


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati *	550,2	119,6	100
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	107,0	125,8	19,5
Kogon sh.	7,6	30,5	1,4
<i>tuman:</i>			
Olot	18,3	101,2	3,3
Buxoro	21,5	112,3	3,9
Vobkent	13,5	105,0	2,5
G'ijduvon	22,3	112,7	4,1
Kogon	10,0	110,2	1,8
Qorako'l	37,3	153,9	6,8
Qorovulbozor	36,1	174,5	6,6
Peshko'	14,0	107,9	2,6
Romitan	61,1	197,4	11,1
Jondor	58,3	110,6	10,6
Shofirkon	12,8	105,0	2,3

* Joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda xisob-kitob qilingan.



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi, foizda



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 15,1 % ni tashkil etib, 2024- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 12,9 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 14,5 % punktga kamayib, 40,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko'payib, 44,2 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,7 % ni tashkil etdi va 2024- yilga nisbatan 12,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,3 % (12,7 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




2024- yil yanvar



2025- yil yanvar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % punktga ko'paydi va 41,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 58,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % punktga kamaydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2025- yil yanvar

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati *	550,2	322,0	148,5	79,7
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	107,0	44,8	50,4	11,8
Kogon sh.	7,6	4,3	2,3	1,0
<i>tuman:</i>				
Olot	18,3	9,5	6,3	2,5
Buxoro	21,5	12,0	7,1	2,4
Vobkent	13,5	7,4	4,5	1,6
G'ijduvon	22,3	14,3	6,0	2,0
Kogon	10,0	5,7	3,6	0,7
Qorako'l	37,3	25,3	8,9	3,1
Qorovulbozor	36,1	3,3	2,2	30,6
Peshko'	14,0	8,7	3,9	1,4
Romitan	61,1	42,3	14,7	4,1
Jondor	58,3	27,0	23,0	8,3
Shofirkon	12,8	7,6	3,8	1,4


* Joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda xisob-kitob qilingan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2025- yil yanvar



ulushi % da



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	267,0	117,7
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	360,0	123,5
Kogon sh.	116,3	30,1
<i>tuman:</i>		
Olot	173,8	99,7
Buxoro	119,6	110,1
Vobkent	90,2	103,2
G'ijduvon	68,6	110,9
Kogon	117,0	107,9
Qorako'l	215,3	151,8
Qorovulbozor	1 795,9	171,0
Peshko'	106,1	106,1
Romitan	401,0	194,5
Jondor	311,3	108,7
Shofirkon	68,1	103,8



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2025- yil yanvar oyi uchun



Hududlar kesimida 2025- yil yanvar oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 1 795,9 ming so'm (yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 171,0 %), undan keyin mos ravishda Romitan tumani – 401,0 ming so'm (yoki 194,5 %), Buxoro shahri – 360,0 ming so'm (yoki 123,5 %), Jondor tumani – 311,3 ming so'm (yoki 108,7 %), Qorako'l tumani – 215,3 ming so'm (yoki 151,8 %) va Olo t tumani – 173,8 ming so'm (yoki 99,7 %) egalladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (65) 223-81-99